

DORIVOR GULXAYRI O'SIMLIGINING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI.

Abduahad Ne'matov Axmat o'g'li

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va Tabiiy fanlar o'qitish metodikasi
fakulteti Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Bu tezisimizda dorivor gulxayri o'simligining dorivorligi va shifobaxsh xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot bermoqchi edik. Chunki bugungi kunda tabiiy mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Shuning uchun dorivor o'simliklarni o'rganish, ulardan dorivor mahsulotlar tayyorlash, kasalliklarga ta'sirini bilish eng muhim mavzulardan biridir.*

Abstract: *In this thesis, we wanted to provide brief information about the medicinal properties and healing properties of the medicinal plant Gulkhari. Because today the demand for natural products is increasing. Therefore, studying medicinal plants, preparing medicinal products from them, and knowing their effect on diseases is one of the most important topics.*

Аннотация: *В данной дипломной работе мы хотели предоставить краткую информацию о лечебных свойствах и целебных свойствах лекарственного растения Гулхари. Потому что сегодня спрос на натуральные продукты увеличивается. Поэтому изучение лекарственных растений, приготовление из них лекарственных средств и познание их действия на болезни является одной из важнейших тем.*

Kalit so'zlar: *gulxayri, g'o'za, kanop, tugmachagul, paxtagul, gulhamishabahor, aktinamorf, to'qay, ko'sak, Althea rosea, Althea offi cinalis, ekstrakt, vino.*

Key words: *gulkhairi, cotton, hemp, button flower, cotton flower, perennial flower, actinamorph, grove, kosak, Althea rosea, Althea officinalis, extract, wine.*

Ключевые слова: *гульхаури, хлопчатник, конопля, пуговка, хлопчатник, многолетник, актинаморфа, роца, косак, алтей розовый, алтей лекарственный, экстракт, вино.*

Dorivor o'simliklar – insonlar va hayvonlarni davolashda, turli hil kasalliklarni oldini olishda va infeksiya kasalliklarni bartaraf etishda, shuningdek, oziq-ovqat, atirupa va kosmetika sanoatida ishlatiladi. Yer yuzida jami dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. O'zbekiston hududida esa 1200 ga yaqin tur dorivorlik xususiyatiga ega.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivori o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi.

Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o'simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda ko'paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O'tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o'simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron va boshqa dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o'tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o'simliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi.

Dorivor gulxayri.

Gulxayridoshlar (Malvaceae) - ikki pallalilardan ayrilojlilarga mansub oila hisoblanadi. Barglari panjasimon o'yama. Gullari aktinomorf, ikki jinsli, yirik, oq, sariq yoki pushti. Kosachasi ikki kavat. Changchilari bitta. Mevasi ko'pchilik vakillarida asosan ko'sak meva. Yer yuzida 80 ga yaqin turkumi va 1500 turi bor. Ko'p tropik va subtropik rayonlarda tarqalgan.

Bulardan gulxayri, g'o'za, kanop, tugmachagul, paxtagul, gulhamishabahor keng tarqalgan. O'zbekistonda 6 turkumi va 17 turi o'sadi. Ularning ko'pidan tola olinadi, dori tayyorlanadi. Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

Dorivor gulxayri (*Althaea*) — gulxayridoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'tlar turkumihisoblanadi. Yevropa va Osiyoning o'rta mintaqalarida 12 turi o'sadi. O'zbekistonda gulningning bitta ekma va 7 ta yovvoyi turi mavjud. Gulhayridoshlar to'qaylarda, sug'oriladigan maydonlarda va boshqa yerlarda uchraydi. Gullari to'g'ri, 5 bo'laqli, ikki jinsli. Gulhayri guli dorivor, manzarali o'simlik, undan bo'yoq olinadi. O'zbekistonda gulhayrining *Althaea rosea* turi manzarali va dorivor o'simlik sifatida ko'p eqiladi. Poyasi 1,5—2 m, yo'g'on, tuklar bilan qoplangan. Barglari 3—7 bo'lakli, uzun bandli. Gullari yakka-yakka yoki 2—3 tadan barg qo'ltig'ida va poya uchida o'rnashgan. Tojbarglari qat-qat bo'lib joylashgan.

Iyun—avgustda gullab, iyul—sentabrda urug'laydi. Tojbarglaridan vino, sirka va rang berishda hamda teri, shoyi va jun kabilarni bo'yashda foydalaniladi. Gulhayrining *Althaea officinalis* turi dorivor o'simlik sifatida tibbiyotda foydalaniladi. Uning ildizidan tayyorlangan suyuq ekstrakt nafas yo'llari kasalliklarida, ayniqsa bolalarda balg'am ko'chirish, ko'krakni yumshatish uchun va yallig'lanishga qarshi, me'da-ichak kasalliklarida esa o'rab oluvchi dori sifatida ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Saytlar:

4. www.arxiv.uz
5. www.guldu.uz
6. www.buxdu.uz

Kitoblar:

23. O'.Pratov, L.Shamsualiyeva, E.Sulaymonov "Botanika" Toshkent 2010.

24. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, A.T.Abdullayeva "Botanika o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi" Toshkent-2018.

25. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, J.S.Sadinov "Botanika" Toshkent 2020.